

**SAN'AT TARIXI USTO MO'MIN IJODI
(NIKOLAYEV ALEKSANDR VASILYEVICH 1897-1957 Y)**

*Jumayev Qoryog'di Jo'rayevich,
BuxDU dotsenti, San'atshunoslik fanlar nomzodi*

*Sulaymonova Muhiba Boltayevna,
BuxDU Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi o'qituvchisi
<https://orcid.org/0000-0003-3229-9134>
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.025>*

Annatotsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston rangtasvir san'atining asoschilaridan biri, mohir rassom Aleksandr Vasilyevich Nikolayev (Usto Mo'min) ijodining muhim jihatlari, XX asr boshlaridagi murakkab ijodiy jarayon, o'zbek avangardining tasviriy san'atdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Usto Mo'min, avangrad, realizm, an'ana, mo'yqalam, musavvir, "Detgiz", badiiy studiya, miniatyura, personaj, obrazli ifoda, sokinlik, shukronalik, "Turkiston avangrad", Sharq ruhiyati.

**ИСТОРИЯ ИСКУССТВА РАБОТА УСТО МУМИНА
(НИКОЛАЕВ АЛЕКСАНДР ВАСИЛЬЕВИЧ 1897-1957)**

*Жумаев Қорёғди Жўраевич,
Бухарского государственного университета, Доцент, кандидат искусствоведения*

*Сулайманова Муҳиба Балтаевна,
Бухарского государственного университета Преподаватель кафедры
изобразительного и прикладного искусства*

Аннотация: В данной статье говорится о важных аспектах творчества одного из основоположников живописного искусства Узбекистана, мастера художника Александра Васильевича Николаева (Усто Мумина), сложном творческом процессе начала 20 века, роли и значении узбекского авангарда в изобразительном искусстве.

Ключевые слова: Усто Мумин, авангард, реализм, традиция, кисть, художник, «Детгиз», художественная мастерская, миниатюра, персонаж, образное выражение, тишина, благодарность, «Туркестанский авангард», восточный дух.

**HISTORY OF ART WORK BY USTO MOMIN
(NIKOLAEV ALEXANDER VASILIEVICH 1897-1957)**

*Qoryog'di Jumaev Jo'raevich,
Bukhara State University Associate Professor, Candidate of Art History*

*Muhiba Sulaymonova Boltaeyna,
Bukhara State University Lecturer, Department of Fine and Applied Arts*

Abstract: This article talks about important aspects of the work of one of the founders of the pictorial art of Uzbekistan, the master artist Alexander Vasilyevich Nikolaev (Usto Mumin), the complex creative process of the early 20th century, the role and significance of the Uzbek avant-garde in the fine arts.

Keywords: Master Mumin, avant-garde, realism, tradition, brush, artist, "Detgiz", art workshop, miniature, character, figurative expression, silence, gratitude, "Turkestan avant-garde", oriental spirit.

Kirish: Mohir rangtasvir va grafikachi rassom. Varonej (Rossiya)da tug'ilgan. Toshkentda vafot etgan. 1920 yildan O'zbekistonda yashagan. Varonejdagi Buchkurin (1916-1918y) Badiiy studiyasida o'qigan. Moskvada K. Malevichning ikkinchi Davlat ustaxonalari (1918-

1919y)da tahsil olgan. 1928-190 yillarida V.Lebedov rahbarligidagi Leningrad “Detgiz”ida ishlagan. 1938 yilda qatag‘onga uchragan. 1941 yilda yana O‘zbekistonga qaytib kelgan va umrining oxirigacha shu yerda ijod qilgan.

“A.V. Nikolayev ijodi o‘zbek tasviriy san’ati tarixida alohida o‘ringa ega. O‘zbekistonni ikkinchi Vatani deb bilgan A.V.Nikolayevning dunyoqarashi Sharq o‘rta asrlar falsafasi bilan mutanosib keldi.” [1:88]

U musulmonchilikni qabul qildi va Usto Mo‘min taxallusini oldi. Rassom sharq san’atini, uning boy madaniy me‘rosi an‘analarini miniatyura, naqqoshlik va amaliy san’at sirlarini chuqur o‘rgangan. Usto Mo‘min ijodida Sharq, italyan Uyg‘onish davri va O‘rta asrlar Rus tasviriy san’ati (ikonolari) an‘analari uyg‘unlashib ketgan.

1920 yilda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining yo‘llamasi bilan Moskvadan O‘zbekistonga bir gruppaga yosh rassomlar va me‘morlar kelishgan. Ular orasida A.V.Nikolayev ham bor edi. U dastlabki besh yilda Samarqandda ishladi.

“Samarqandga kelishim bir necha yil davomida ijodimga katta ta’sir ko‘rsatdi. Meni Sharq o‘zining g‘aroyibotlari bilan hayratga soldi. Xalqning milliy urf-odatlarini maftun etdi, bezak naqsh san’ati bilan tong qoldirdi” [2:7] deb yozgan edi rassom.

Usto Mo‘min boshqa ba’zi rassomlarday Ko‘hna Sharqni, sharqona-afsonaviy, samoviy qilib tasvirlamadi. U O‘zbekiston tabiatini, xalq hayotini teran his etib, uning anvoyi go‘zalliklarini yorqin bo‘yoqlarda tasvirladi.

Rassom Sharqni o‘rganibgina qolmay, uni o‘ziga butunlay singdirib, o‘zini esa unga butunlay baxshida etdi.

Asosiy qism: O‘zbek rangtasvir san’atiga asos solgan taniqli mo‘yqalam sohiblari A.Volkov, M.Kurzin, Ye.Korovoy, O.Tatevosyan, P.Benkov, N.Karaxanlar tarixida muhim o‘rin tutadi. Qolaversa yuqorida nomlari keltirgan mohir rassomlar ichida A.V.Nikolayev o‘zbek xalqining urf-odatlarini, ananaviy san’atini, tabiatini mukammal o‘rganib, o‘zining ijodida o‘ziga xos uslubda ifoda eta olganligi bilan alohida hurmatga sazovordir.

U o‘z ijodida farahbaxshlik, aniqlik va musiqiylikni butun san’atga xos xususiyat deb hisoblaydi, dunyoni anglashi ham ravshanlashadi. Uning asarlarida zamonda davomiylik-zaminda cheksizlik o‘z ifodasini topgan. Bu esa, nozik sukunatning alohida holatidir. Usta Mo‘min asarlaridagi naqshlarning nozik nafisligiga nazar tashlar ekansiz, beixtiyor Uyg‘onish davrining buyuk rassomi Botticheli asarlarini, Eron va O‘rta Osiyo miniatyuralarini yodga solishini guvohi bo‘lasiz. Uning Sharq va G‘arbga murojati naqadar murakkab bo‘lsa, uning ijodidagi shartlilik va reallik ham shu qadar ilg‘ib bo‘lmas murakkabdir. Musavvir o‘z personajlari atrofida, piyola, choynak, Sharq gilamining bir chekkasini tasvirlashi bilan kartinada aks ettirilgan kishi bilan qo‘shilib ketgan eski hayotning muhitini tasvirlaydi.

“Usto Mo‘min butun ijod yo‘li davomida xayratlanish va obrazli ifodalarining o‘ziga xos jihatlari o‘rganishdan charchamagan. Xalq san’at asarlarining nafaqat shakliy-plastik jihatlari-rangdagi sipolik, kompozitsion tugallik, uslublarning ohangdorligi, shuningdek, ularga singdirilgan xalq hayoti va qadriyatlarini to‘g‘risida tasavvurlarni ham teran his qilgan. Natijada rassom Sharq va G‘arb san’atini umumlashtiruvchi, ammo ko‘proq Sharq madaniyatini ruhini aks ettiruvchi o‘ziga xos yo‘sinda to‘xtalgan.”[3:152]

Rassomning “Suv tashivchi bola”, “Dutor chalayotgan o‘zbek”, “Hayot yo‘li”, “Mo‘yna qalpoqli bola”, “Yosh o‘zbek yigiti portreti”, “Kuyov” va boshqa asarlari shukronalik, tugallanmaganlik, sokinlik kabi xususiyatlar bilan yaratilgan yetuk rangtasvir asarlari hisoblanadi.

XX asrning 20 yillarida O‘zbekistonda tasviriy san’at milliy maktabi shakllana boshladi. Bu davrda O‘zbekistonni ikkinchi vatani deb bilgan rossiyalik rassomlarning katta oqimi ko‘zga tashlanadi. Ularning aksariyati iste’dodli shaxs sifatida shakllangan edilar va o‘ziga xos o‘zbek rangtasviri, tasviriy san’atning qolgan turlari maktabining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. Bu o‘n yillik “Turkiston avangradi”dek noyob yo‘nalishi vujudga kelishi bilan e’tiborga loyiq. Shu sababli ana shu rassomlar bu davrdagi ijodini umumlashtirib uni “O‘zbekiston avangard” san’ati deb nomlaydilar.

Ularning yirik vakillari A.Volkov, O.Tatevosyan, N.Karaxan, O.Tansiqboyev, A.Siddiqiy

va boshqalar safida A.Nikolayev (Usto Mo‘min) munosib o‘ringa ega. Ularning 1920 yillardagi ijodiy konsepsiyalari asosida an’anaviy she’riyatni teran tushunish, xalq san’ati va dastgohli rangtasvirning o‘zaro uyg‘unli va uni XX asrning ijodiy intilishlari bilan uyg‘unlashtirish mujassam bo‘lgan. Qaysidir jihatlar bilan jadidlar harakati bilan hamohang bo‘lganligini ko‘ramiz.

Usto Mo‘min butun ijod yo‘li davomida hayratlanish va obrazli ifodalarning o‘ziga xos jihatini o‘rganishdan charchamadi. Natijada uning o‘ziga xos noyob asarlari dunyoga keldi.

Hayotining ko‘p qismini O‘zbekistonda kechirgan buyuk musavvir o‘zidan katta meros qoldirdi. Unda nafaqat uslubiyat, balki Sharq ruhiyatining singib ketganini his etamiz. Musavvirning qoldirgan tasviriy san’at asarlari o‘zining g‘oyat jiddiy va qat’iyligi bilan alohida ajralib turadi.

Uning go‘zallikka havasi ulug‘vor va zamin bilan chambarchas bog‘langan.

U tabiatga nihoyatda sadoqatli bo‘lib qolgani holda, pokizalik, latofatli, mangu yoshlik va bahorning ideal obrazlarini yaratdi.

Usto Mo‘min rangtasvir asarlarini asosan tempera bilan chizgan, ammo moybo‘yq bilan oz, lekin juda sermazmun rasmlar chizgan. Bular uning “Eski maktab”, “Muzeyda”, “To‘qay”, “Xo‘ja Nasriddin bozorda” kabi kartinalari bo‘lib, bu asarlar rassom moybo‘yoq bilan rasm ishlash texnikasini mahorat bilan egallaganligini ko‘rsatadi.

Yuksak mahorat egasi, mo‘yqalam ustasi Usto Mo‘min xalqqa, o‘lkaga muhabbati, uning go‘zalliklarini chuqur idroq qilishi, obrazlar tiplarini yaxshi bilishi va xarakterlarni turlicha yuz-chehralarning aniq belgilari orqali aks ettirishda namoyon bo‘ladi. Uning “Choyxonachi”, “Betonaboz”, “Do‘stlik”, “Muhabbat abadiy” singari kartinalari shunday mahorat bilan ishlangan.

Xulosa: Usto Mo‘min ijodi ko‘pqirralidir. Devoriy rasmlarda ham, akvarelda ham, temperada ham, kitobiy san’at va kitob illyustratsiyasida ham, teatr bezaklari va polotnolari eskizlarida ham, rassomning dastxati sezilib turadi.

1930-1950 yillarda Usto Mo‘min A.Volkov, R.Kashina, O‘.Tansiqboyev, N.Karaxanlar qatori an’anaviy uslubga murojaat qilgan holda faqat avangard san’atining shartli uslubi tajribalarini o‘zlashtiribgina qolmay, balki O‘rta Osiyo badiiy an’analarining uzilmas zanjirini davom ettirdilar. Ular ijodining avangarddan realizmga o‘tishi davomida, yetarlicha burilish davrini boshlaridan kechirdilar. Bu bir badiiy uslubdan ikkinchisiga shunchaki o‘tish bo‘libgina qolmay, aslida jamiyat, madaniyat, san’atdagi keskin meyoriy shakllarning qayta baholash bilan kechadigan murakkab jarayondir.

Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston davlat san’at muzeyida Usto Mo‘min tavalludiga bag‘ishlangan ko‘rgazmaning ochilishida muzey fondida saqlanayotgan rassomning sara asarlari bilan birgalikda hali namoyishga qo‘yilmagan grafik asarlari ham ekspozitsiya asosini tashkil etadi. Rassomning O‘zbekiston tabiati, xalqiga bo‘lgan mehri tufayli Sharq an’analari va o‘zgacha ruhda yaratilgan 60 ga yaqin asarlari ko‘rgazmadan o‘rin egallagan.

O‘zbek tasviriy san’atining asoschilaridan biri Usto Mo‘minning yuksak badiiy qimmatga ega asarlari Respublikamizning markaziy muzeylari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridagi I.A.Savitskiy nomidagi davlat muzeyi va Rossiyaning yirik muzeylari to‘plamlaridan munosib o‘rin egallagan.

Yuksak iqtidor sohibi, betakror musavvir o‘zining noyob ijodi bilan O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan munosib o‘rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston madaniy merosi. Sharq xalqlari davlat muzeyi to‘plami. 1-tom. T.,2017.

O‘zbekiston madaniy merosi. Tretyakov davlat galeriyasi to‘plami 3-tom T.,2017.

O‘zbekiston madaniy merosi. I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston

Egamberdiyev A. (1989). Janravaya jivopis. T: O‘zbekiston nashriyoti.

Apuxtin O.K. (1965). Tasviriy san’at haqida suhbatlar. T: Fan nashriyoti.

Hakimov A.A. (2009). XX asr avangardi. T: Fan nashriyoti.

Yeremyan R.V. (2016). Usto Mo‘min (A.Nikolayev). T: